

MA'NAVIYAT FENOMENI: SHAXS ONGIDAN JAMIYAT RAVNAQIGACHA

O'rinboyeva Elnora Furqat qizi
Toshkent viloyati Bekobod tumani
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
e6445214@gamil.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18358660>

Annotatsiya

Mazkur maqolada ma'naviyat fenomeni shaxs ongida shakllanuvchi murakkab ijtimoiy – huquqiy va axloqiy hodisa sifatida tahlil barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati ilmiy-nazariy asosida yaratib beriladi. Shuningdek, globallashuv sharoitida milliy ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada ma'naviyatning jamiyat ravnaqi uchun hal qiluvchi omil ekani asoslab berilgan.

Kalit so'zlari: Ma'naviyat, ma'naviy ong, shaxs kamoloti, jamiyat taraqqiyoti qadriyatlar, tarbiya, globallashuv, milliy g'oya.

Bugungi globallashuv va tezkor axborot almashinuvi sharoitida ma'naviyat masalasi jamiyat hayotining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan birga aylanmoqda. Har qanday jamiyatning mustahkamligi va barqaror taraqqiyoti avvalo undagi insonlarning ma'naviy darajasi bilan belgilanadi. Ma'naviyat inson ongida shakllanib, uning jamiyatdagi xulq-atvori dunyo qarashi va hayotiy pozitsiyasida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan qaralganda, ma'naviyat fenomeni shaxs ongidan boshlanib, jamiyat ravnaqigacha bo'lgan uzviy jarayonni ifodalaydi.

Mustaqil O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham ma'naviyat masalasi muhim o'rin egallab, yosh avlodni ma'naviy barkamol etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor vazifasini sifatida belgilanmoqda.

Ma'naviyat fenomenining mohiyati va mazmuni. Ma'naviyat-bu insonning ichki ruhiy olami, axloqiy qarashlari, e'tiqodi vijdoni va ijtimoiy mas'uliyatini o'zida mujassam etuvchi murakkab tushunchadir. U insoning ezgulik va yovuzlikni farqlashi, adolat va haqiqatni anglash qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Ma'naviyat fenomen sifatida shaxs ongida shakllanadi va ijtimoiy munosabatlar jarayonida takomillashadi. Insonning ma'naviy darajasi uning jamiyatdagi faolligi ijtimoiy mas'uliyati va vatanparvarlik tuyg'ularida namoyon bo'ladi. Shu sababli ma'naviyat faqat shaxsiy hodisa emas, balki ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi muhim omildir.

Shaxs kamolotida ma'naviyat hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ma'naviy yetuk shaxs jamiyat manfaatlarini anglatadi, qonun va axloq normalariga amal qiladi. O'z hayotiy faoliyatida mas'uliyatli qarorlar qabul qiladi. Bunday inson nafaqat o'z hayoti balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham foydali faoliyat yuritadi. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish bugungi kuning dolzarb masalalaridan biri bo'lib, ajdodlar merosi va vatanparvarlik g'oyalarini singdirish shaxs ma'naviyatini shakllantirishda muhim hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyoti faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki undagi ma'naviy muhit bilan ham belgilanadi. Ma'naviy qadriyatlar ustuvor bo'lgan jamiyatda adolat, qonun ustuvorligi va ijtimoiy hamjihatlik qaror topadi. Aksincha, ma'naviy bo'shliq yuzaga kelgan jamiyatda turli ijtimoiy muammolar va inqirozlar kuchayadi. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, jamiyatni isloh qilish jarayonida ma'naviy ma'rifiy ishlar muhim o'rin tutadi. Milliy g'oya va ma'naviy o'rin tutadi. Milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlar jamiyat barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Globallashuv sharoitida ma'naviy qadriyatlarni asrash. Globallashuv jarayoni axborot almashinuvi va madaniy integratsiyani kuchaytirgan holda, ma'naviyatga tahdid soluvchi omillarni ham yuzaga chiqarmoqda. Turli yot g'oyalar va axloqiy qadriyatlarga zid qarashlar yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu boisdan milliy ma'naviyatni asrash va uni zamon talablari asosida rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida olib borilayotgan tarbiya yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviyat fenomeni shaxs ongida shakllanib jamiyat ravnaqiga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy omildir. Ma'naviy barkomol shaxslar jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Shu sababli ma'naviyat masalasi doimo davlat va jamiyat e'tiborida bo'lishi, ta'lim-tarbiya tizimida ustuvor yo'nalish sifatida rivojlantirilish lozim.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Karimov.I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" – Toshkent. 2008
2. Mirziyoyev.SH.M. Milliy taraqqiyot srtategiyasi asoslari – Toshkent
3. Abdullayev A.Ma'naviyat -ma'rifat asoslari- Toshkent 2019
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya .Toshkent- 2013yil